

SINONIMIGA EGA NOFAOL SO`ZLAR

Isoqjanov Sherzod Bahodir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talaba

mamalakatmamlakathon@gmail.com

Anotatsiya

ushbu taqdim etiladigan maqolada sinonim so'zlar haqida fikr yuritildi. Sinonimlarning nutqimizdagi o'rni va ularning hosil bo'lismi yo'llari haqida fikrlar berildi. Asosan sinonimlar qay tarzda hosil bo'lishi va ularning 5 turi haqida tushunchalar mavjud.

Kalit so'zlar: sinonim so'zlar, lug'aviy sinonimlar, ideografik sinonimlar, uslubiy sinonimlar, nutqiy sinonimlar, kontestual sinonimlar, absolyut sinonimlar.

Sinonim so'zlar – shakli har xil bo'lsa ham ma'nosi bir-biriga yaqin va bir ma'noning bir necha so'z shakllari orqali beriladigan so'zlar hisoblanadi. Bundan tashqari sinonim so'zlar bir tushuncha, hodisa, narsa yoki belgi ifodalovchi, ma'nolari o'xshash yoki yaqin bo'lgan, turli ma'no sifatlarini va ekspressiv – stilistik bo'yoqlarini farqlash uchun xizmat qiluvchi so'zlardir [3 : 73]. Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qatorni hosil qiladi. Sinonimik qatori ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir so'z asosiy so'z hisoblanadi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llana oladi shuning uchun (bosh so'z) "neytral so'z", "betaraf so'z", "uslubiy neytral so'z", "dominanta" atamalari bilan nomlanadi . Masalan, nazar solmoq – boqmoq - qaramoq sinonimik qatorda bosh so'z qaramoqdir; aft – bashara – chehra – oraz – yuz - turq sinonimik qatorida bosh so'z yuz hisoblanadi. [3 : 74]. Sinonimlar ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

- 1) so'z o'zlashtirish orqali;
- 2) so'z yasash orqali.

Quyidagi sinonimlar boshqa tildan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: sevgi (o'zbek) – muhabbat (arab);[1 : 67] kuch (o'zbek) – qudrat (arab); buyruq (o'zbek) – amr (arab) – farmon (tojik); ot (o'zbek) – ism (arab);[1 : 67] yozivchi (o'zbek) – adib (arab); manglay (o'zbek) – peshona (tojik);[1 : 67] dil (tojik) – qalb (arab). O'zlashma so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin. Masalan, hujum – ataka - hamla; jousus - agent; mavzu - tema; muallif – avtor; sozanda - muzikant; muharrir - redaktor; aktyor - artist; shtraf - jarima.

Tilda bor so'zlar yangicha ma'no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa - topshiriq; xotira – yodgorlik - esdalik; fark - ayirma; maosh – moyana - oylik.

O'zbek tili sinonimlarga boy tildir. Sinonimlarning ko'pligi tilning boyligi bo'lib , bir ma'noni turli darajalarda ifodalash imkonini beradi. Masalan "qaramoq" tushunchasini ifodalovchi "tikilib qoldi", "uzoq qaramoq", qiyobqozi "bir qarab qo'ymoq", zimdan kuzatdi "yashirinch qaramoq" kabi ma'nolarni ifodalagan.

Sinonimlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) lug'aviy sinonimlar 2) grammatik sinonimlar 3) lug'aviy - frazalogik sinonimlar 4) uslubiy sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar. So'z va iboralarning o'zaro sinomni bo'lishi lug'aviy sinonimlar deyiladi. Lug'aviy sinonimlar doirasida so'zlar : mard, jasur; iboralar: havsalasi pir bo'lган, qo'lini qo'ltig'iga urdi o'zaro sinonim bo'ladi [2 : 36].

Lug'aviy sinonimlar 2 xil bo'ladi:

1) To'liq sinonimlar. 2) Ma`naviy sinonimlar

Sinonim so'zlar ma'nosi va ishlatilishi jihatidan farqlanmasa to'liq sinonim deyiladi. Masalan, tilshunos – lingvist [2 : 36]

Sinonimlar o'zaro ma'no qirrasi bilan farqlansa, ma`naviy sinonim deyiladi. Masalan, katta, yirik [2 : 36] so'zlari "kattalkni" ifodalaydi. Biroq katta so'zi katta narsalarning kattalagini (katta bino), yirik so'zi esa kichik narsalarning kattaligini (uzumning donalari yirik - yirik) bildiradi. Shuningdek, ho'l, shalabbo [2 : 36].

Grammatik birlıklarning (Qo'shimchalar, gaplarning) sinonim bo'lishi **grammatik sinonimlar** deyiladi. Masalan, -yap, -yotir, -moqda qo'shimchali so'zlar kelayabti, kelayotir, kelmoqda qo'shimchalar sinonimligi: [2 : 37].

Bu kitobni o'qishim kerak, bu kitobni o`qimasam bo`lmaydi sodda gaplar doirasida sinonim bo`lsa, tong otdi va yo`lovchilar yo`lga tushdilar. Tong otdi va yo`lovchilar yo`lga tushdilar gaplari qo`shma gaplar doirasidagi sinonimlardir.

So`z bilan so`z birikmalari o'zaro sinonim bo`lsa, lug'aviy - frazealogik sinonim deyiladi: ayol - ilonni yog`ini yalagan, xursand - og`zi qulog`ida, achiqlandi - mena sochi tikka bo`ldi [2 : 37].

Sinonimlar uslubiy bo`yoq jihatdan farqlansa uslubiy sinonimlar deyiladi: kulmoq, jilmaymoq, tirjaymoq kabi [2 : 37]. Sinonimik munosabatlar bir so`z turkimi doirasida bo'ladi. Sinonimlar asosan tilning ichki imkoniyati asosida, shuningdek boshqa tillardan so`z o`zlashtirish asosida vujudga keladi. Sinonim so'zlar ayni bir birlashtiruvchi ma'noga ega bo'lishi bilan birga quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanib turadi: 1) ma'no qirrasiga ko'ra 2) uslubiy jihatiga ko'ra 3) nutqiy xoslanishiga ko'ra. Shunga ko'ra sinonimlarni quyidagi turlari mavjud:

Ideografik sinonimlar. Bu turdag'i sinonimlar o'zaro ma'no qirrasiga ko'ra farqlanadi. Masalan, aniq, ravshan, yorqin [1 : 66] so'zlari bir sinonimik qatorga birlashsa ham, ma'no qirralariga ko'ra farqlanadi. Aniq fikr, ravshan fikr, yorqin fikr. Bu misollarda belgi darajasi aniqqa nisbatan ravshanda, ravshanga nisbatan yorqinda kuchlidir [1 : 66].

Uslubiy sinonimlar. Bu turdag'i sinonimlar o'zaro uslubiy baho bo'yoqdirligi jihatidan farqlanadi. Masalan, gavdali, jussali, barvasta, norg'ul, qomatdor, barzangi [1 : 67].

Bo'yoqdorlik darajasi gavdalida neytral, jussali, barvasta, norg'ul, qomatdorda ijobiy bo'yoqqa ega, barzangida salbiy bo'yoqqa ega

Nutqiylar sinonimlar. Bu turdagи sinonimlar o'zaro nutqiylar sinonimlари xoslanish belgisiga ko'ra farqlanadi. Masalan, nur - umumnutqqa xos, yog'du badiiy nutqqa xos; yana – umumnutqqa xos, tag'in – so'zlashuv nutqiga xos[1 : 67].

Kontekstual sinonimlar. Sinonomiya til birliklari orasidagi munosabat asosida tug'iladi. Leksik qo'llash asosida sinonomiya hosil bo'lmaydi. Chunki leksik qo'llash leksik ma'no deb qaralmaydi. Leksik ma'no bilan leksik qo'llash orasida sinonimik munosabat kontekstual sinonimlar deb nomlanadi. Masalan, adib, yozuvchi, avtor[1 : 67] sinonimik qatori ma'lum kontekstda Oybек atoqli otiga kontekstual sinonim bo'ladi.

Absolyut sinonimlar. Har jihatdan bir-biriga teng bo'lgan sinonimlarga aytiladi. Masalan, surat - rasm, so'roq - savol, xabar - darak, agitatsiya - tashviqot, tema - mavzu. Bunday sinonimlar leksik dubletlar deb ham yuritiladi

Bu sinonimlarni eskirishi natijasida nofaol sinonimlar yuzaga keladi. Nofaol sinonimlar ma'lum leksik ma'nosi yadro semalari bo'yicha aynan bir xil bo'ladi lekin sinonimik tarkibdagi bir so'z ma'lum sababga ko'ra nofaol holatga ko'chadi. Buning sababi yo so'zning eskirganligi, yo deyarli dialektalligi bilan bog'liligida kuzatiladi. Masalan, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida qo'llangan nofaol sinonimlariga to'xtaladigan bo'lsak: Bakovul so'zini olsak, bu so'z asarda oshpaz; poshikasta so`zi ojiza, zaif manolarida; tanti so`zi mard, ko`ngl, ochiq ma`nosida qo'llanilgan, lekin hozirda tanti, poshikasta bakovul so`zlari tilimizda kam qo'llanadi. Bundan tashqari bujur so`zi ajin, burishiq ma`nosida; iyak so`zi pastki jag` ma`nosida; hang so`zi gangigan, hayratga tushgan ma`nosida; tahdid so`zi po`pisa, do`q qilish ma`nosida; yag`rin so`zi kurak usti ma`nosida; tog'onoq so`zi yog'och ilgak ma`nosida; zabit so`zi zabit etmoq, bo'ysindirmoq ma`nosida; ket so`zi orqa, tomon ma`nosida; yerparchin so`zi shol ma`nosida; jelak so`zi nimcha ma`nosida, esankiramoq so`zi dovduramoq ma`nosida; xesh so`zi qarindosh ma`nosida; akrabo yaqinlar, urug'lar ma`nosida; angraymoq so`zi es hushini yo'qotgan ma`nosida; sag'ana so`zi maqbara ma`nosida; supa so`zi shiypon ma`nosida; ro'znama so`zi gazeta ma`nosida; muztar so`zi majbur bo'lgan ma`nosida; firqa so`zi guruh, to'da ma`nosida; piypalamoq so`zi ezmoq ma`nosida; tag'in so`zi bundan tashqari ma`nosida; xonish so`zi kuylash ma`nosida; intiq so`zi intizor ma`nosida; burnog'i so`zi o'tgan ma`nosida; alamzada so`zi qasos o'ch olish ma`nosida; panshaxa so`zi besh shoxli asbob ma`nosida qo'llanilgan. Lekin bu bujur, iyak, hang, tahdid, yag`rin, tog'onoq, zabit, ket, yerparchin, jelak, esankiramoq, xesh, akrabo, angraymoq, sag'ana, supa, ro'znama, muztar, firqa, piypalamoq, tag'in, xonish, intiq, burnog'i, alamzada, panshaxa kabi so`zlar ham tilimizda nofaol sinonimlar qatoridan joy olmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki tildagi sinonimlar yig`indisi sinonimika deb yuritiladi. Sinonimika - til boyligi. Ularni bilish, qo'llash san`atini egallash yuqori nutq

madaniyatning belgisidir. Sinonimlar fikrni aniq va ravshan, rang - barang ifoda qilishga yordam beradi. Ammo sinonim so`zlarni kam qo`llash natijasida nofaol sinonimlar ko`payib bormoqda. Nofaol sinonimlar soni ortib borsa tilni kambag`allashiga olib keladi. Sinonim so`zlarni ko`p qo`llash esa har bir tilni boyligiga, uning jozibadorli bo`lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan dabiyotlar

1. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo`ldoshev, D.Muhamedova “O`zbek tili praktikumi”
2. X.Jamolxonov “Hozirgi o`zbek adabiy tili”
3. A.Abduaizov “Tilshunoslik nazariyasiga kirish”
4. Tog`ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”.